

KOMIL DEVONIYNING KOTIBLIK MAHORATI

Meyliyeva Farangiz Uktam qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti magistranti
e-mail: farangizmeyliyeva06@gmail.com

Abstrakt

Komil Devoniy XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Muhammad Rahimxon Feruz davrida yashab ijod qilgan. Komil Devoniy ko‘p qirrali ijodkor bo‘lib, Feruz saroyi atrofidagi adabiy doiralarda shoir, kotib, naqqosh va musiqashunos sifatida faoliyat yuritgan. U devon tartib bergan.

Ushbu maqolada Komil Devoniyning hayoti, ijodi va kotiblik faoliyati asosiy ilmiy manbalar va qo‘lyozmalarga tayanilgan holda tadqiq qilinadi. Bundan tashqari, uning ijodiga oid g‘azallardan misollar ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Komil Devoniy, kotib, qo‘lyozma, devon, bayoz, g‘azal, muxammas, manbashunoslik.

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Xorazm adabiy-madaniy hayoti sezilarli yuksalishga erishdi. Bu davrda yetishib chiqqan salmoqli ijodkorlardan biri – Komil Devoniy bo‘lib, u o‘zining ko‘p qirrali ijodi, xususan, lirik she‘rlari, kotiblik faoliyati va manbashunoslik jihatdan muhim bo‘lgan qo‘lyozmalari bilan ajralib turadi.

Komil Devoniy hayoti va ijodini o‘rganish o‘z davridan boshlangan. Bu davrda Ahmad Tabibiyning “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” [№1152, 1908, 470^a], Bobojon Tarroh Xodimning “Xorazm shoirlari va navozandalari” [Otamurodova, Abdurahimov, 2011, 129-136] hamda Hasanmurod Laffasiyning “Tazkirai shuaro” [P.Bobojonov, 1992, 83] tazkiralarda yozilgan. Ushbu tazkiralarda shoir hayoti va ijodiga oid qimmatli ma‘lumotlar bor.

Komil Devoniy juda samarali ijod qilgan, uning 3 ta devon qo‘lyozmasi yetib kelgan bo‘lib, ular №901, 906, 1142 raqamlar ostida O‘zR FASHIda asosiy fondga saqlanmoqda.

O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi [Musamammedova, 1968, 191-228] 1968-yilgi nashrida shoirning shu kunga qadar uch devon qo‘lyozmasi yetib kelganligi haqida ma‘lumot beriladi. Bunda Devoniyning o‘zi ko‘chirgan qo‘lyozma devoni borligi aytiladi. Bu hozirda O‘zR FASHIda №1142 raqami ostida saqlanayotgani qayd qilinadi. Bundan bilishimiz mumkinki, shoirning xattotlik mahorati ham ancha yuqori bo‘lgan.

1971-yil Yusuf Ro‘zimatov Komil Devoniyning “She‘rlar” to‘plamini e‘lon qilgan.

2022-yilda Anvar Matniyazovning Komil Devoniy she‘rlaridan tarkib topgan “Tanlangan asarlar”i nashr qilingan. Bu nashrda Komil Devoniyning o‘g‘li Hamza nomidan yozib olingan ma‘lumot bor [Matniyazov, 2022, 184].

Shoir nafaqat ijodiy salohiyati, balki qo‘lyozma madaniyatiga bo‘lgan yuksak hurmati, ilm-fanga sadoqat bilan xizmat qilganligi bilan ham e‘tiborga loyiqdir.

ASOSIY QISM

Komil Devoniy bu davrning ilmli, salohiyatli, bir necha hunarlarni egallagan bilimdon vakili bo‘lgan. Komil Devoniy 1937-yil Xiva shahrining orqa tarafidagi Sangar qishlog‘ida, Qosim devon qavmida Ismoil Muhrkan oilasida [Otamurodova, Abdurahimov, 2011, 131] tug‘iladi. Bobojon Tarroh – Xodim shoirning ijtimoiy kelib chiqishi haqida quyidagilarni bayon qiladi: “... *shoir Komiljonni ijtimoiy chiqishi, otasi muhrkan ya’ni muhr qozodi. Ham butun urush asboblarig‘a dori yaroqlarni tuzatadurg‘on hamda olti yarim maqomni ham bilgan va ham naqqoshliqni va foiz bilgan*

ham xushxat kotib, demak har turli hunarlardan ogoh... Shuni uchun ham shoir Komil Devoniyni ijtimoiy chiqishini hunarmand oilasidan chiqq'on desa mumkin³¹³".

Xorazmda mohir xattot va kotiblar juda ko'p bo'lgan. Masalan, Abduzohir kotib, Munis Xorazmiy, Xudoybergan Muhrkan Xivaqiy, Komil Xorazmiy, Eshjon Xivaqiy, Xolmurod Gurloniy, Rahmonqul Xo'ja, Bobojon Tarroh – Xodim va shular qatorida Muhammad Komil Devoniy ham bo'lgan. Muhammad Rahimxon I va Muhammad Rahimxon Feruz davrida ko'plab kotiblar yetishib chiqdi va qo'lyozma manbalarni ko'chirish ishlari jadal rivojlandi. Muhammad Rahimxon Feruz, ayniqsa, bu ishlarga o'zi bosh-qosh bo'lgan. Uning farmoni bilan ko'plab nusxada kitoblar ko'chirilgan.

Komil Devoniya kotibga xos xususiyatlarning barchasi mujassam bo'lgan. Kotiblik yozuvning paydo bo'lishi natijasida yuzaga keldi, ayniqsa, arab yozuvining keng tarqalishi tufayli kotiblikning rivojlanishi jadallashdi. O'rta Osiyoda arab yozuvlari tarqalguniga qadar turli yozuv usullari bo'lgan. Masalan sug'diy, urxun-enasoy, qadimgi turkiy xoqon yozuvlari va boshqalar. XV asrdan kitob ko'chirishda nasta'liq xati paydo bo'lgan.

Komil Devoniy ko'chirgan manbalarida she'rlar xatosiz ko'chirilganligi, arab tilidagi harflarni tiniq, o'quvchiga tushunadigan holda husnixati ravon, misralarida kamchiligi yo'qligi ko'zga tashlanadi. Komil Devoniy o'z qo'li bilan ko'chirgan manbalarni quyidagicha tasnifladik:

1. Bayozlar.
2. Devonlar.

1. O'zR FASHI asosiy fondida saqlanayotgan **6951 raqamli bayozda** Nozir, Purkomil, Avaz, Asad, Yusuf, Mutrib Xonaxarob, Xokiy, Chokar, Sodiq, Inoyat, Kamoliy, Devoniy, Rog'ib, G'oziy, Muznib, Xodim, Nadimiy, Bayoniy, Mirzo, Niyoziy, Oqillarning she'rlari kiritilgan. Jami: 21 ta shoir she'rlari bor. Bu bayoz Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon farmoniga binoan hijriy 1328, milodiy 1910-yilda Komil Devoniy tomonidan nasta'liq xatida ko'chirilgan. Bayoz kolofoni quyidagicha: "Zilli as-subhona xoliyfatahu ar-rahmoni a'ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon domi davlatahu va shavkatahuning farmoni oliylari birlan ushbu bayozni faqirul-haqiyr Muhammad Komil devon mulaqqabi ba Devoniy ibn domlo Ismoil devon Xorazmiy yozib, safar oyida itmomg'a yetkurdi. Sana 1328 lanji yilda".

Ushbu bayozda Komil Devoniyning ham 21 ta g'azali kitobat qilingan. Bu she'rlarning barchasi shoir dastxati ekanligini ta'kidlash kerak. Quyida Komil Devoniy qalamiga mansub 13 baytli g'azalning matla' va maqta'ini keltirdik:

Matla': Bir kun mahbubam aylabon holimni yaro mani,
Quvlab chiqardilar yana ko'yi aro mani.

Maqta': Orzur husni zakot bo'lsa Devoniy netong,
Kim gadolig' bo'ldi kasb ila kamolotim mani.

G'azal aruzning hazaji musammani mahzuf bahrida yozilgan. Quyida bu g'azallarning birinchi misralarini berdik: "Bir kun mahbubam aylabon holimni yaro mani..." (14 bayt), "Bo'sa qil la'lim seningdin ehson, ey pari..." (7 bayt), "Bo'lub ag'yor birla dabirim yor..." (7 bayt), "Musofirkim nechuk holi kechar qilg'ay safar shohnamo ..." (9 bayt), "Kel emdi bir vafo rasmin ayon et..." (9 bayt), "Zamir qaytib charxdin jo mim misol" (9 bayt), "Ey sitamgar, muncha bedodu sitam qilmoq nedur..." (7 bayt), "Odatini yor jafu ayladi..." (7 bayt), "Ul parikim keldi husn avjida uch hol ango..." (9 bayt), "Yana mehribon g'amida batar zor bo'ldim..." (7 bayt), "Ishq dardi hajr o'tida jonim o'rtodi..." (7 bayt), "Manga rahm ayla, ey sho'xi parizod..." (6 bayt), "Chok-chok o'ldi ko'ngil ahli zamon ozoridin..." (7 bayt), "Jafoni tark etib, ey la'lixandon..." (7 bayt), "Shiddati holim ko'rub ahli zamona o'rtonur..." (7 bayt), "Yor labi birda kel qatlimg'a jilva aylasa..." (7 bayt), "Jamoling shavqi anjuri shaydo siymo..." (7 bayt), "Yana bir nozanin qotil g'amig'a muftalo bo'ldim..." (7 bayt), "Nigoroyim gul yuzu, shamshodi qomat..." (7 bayt), "Karam fosh aylab, ey Yusuf misolim..." (7 bayt), "Yorga mehr vafo rasmin bayonu ayladi mos..." (7 bayt).

³¹³ Bobojon Tarroh-Xodim. Xorazm shoirlari va navozandalari (Tabdil qilib, nasrga tayёрlovchilar: Otamurodova A., Abduraximov O.). – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2011. – B. 131.

Hozirgacha ushbu bayoz juda yaxshi saqlangan. Qo'lyozma muqovasi qattiq. Rangi to'q yashil. Ustida o'yma naqsh bor. Tarkibiga kirgan she'rlar fabrika qog'oziga ko'chirilgan. Bayozning ba'zi sahifalariga "Rjevskoy fabriki №6" degan muhr bosilgan. She'rlar qora va qizil siyohlarda nasta'liq xatida yozilgan bo'lib, ikki qator qiya holatda ko'chirilgan. Har bir sahifada 12 satrdan she'r bor. Bayozdagi she'rlar sarlavhalangan, raqamlangan. O'lchovi: 17,5x11. Bayoz 306-betdan iborat. Manbaning boshida va oxirida 3 varaq bo'sh (farzas) qoldirilgan.

O'zR FASHI asosiy fondida saqlanayotgan **2024** raqamli bayozda Ushbu bayoz Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon farmoniga binoan hijriy 1327, milodiy 1909-yilda Komil Devoniy tomonidan nasta'liq xatida ko'chirilgan. Ushbu bayoz "Basmala"dan boshlanadi. Bunda dastlab, Devoniyning "Bir nishon etib xotirimni bu dam..." misrasi bilan boshlanuvchi g'azali ko'chirilgan. Shu qatori Rog'ib, Muznib, G'ulomiy, Bayoniy, Sodiq, Mutribi Xonaxarob, Xokiy, Kamoliy, Sa'diy, Yusuf, Avaz, Xodim, Nadimiy, Inoyat, Purkomil, Tabibiy, Nozir, Shinosiy, Oqil, Asadlarning ham g'azallari ko'chirilgan. Qo'lyozmada jami 20 ta shoir g'azallari bor. Komil Devoniyning esa 23 ta g'azali o'rin olgan. Bu she'rlarning barchasi shoir, ya'ni Komil Devoniy dastxati ekanligini ta'kidlash kerak. Quyida bu g'azallarning ham birinchi misralarini keltirdik: "Bir nishon etib xotirimni bu dam..." (7 bayt), "Vahki bir bad mehr ishqi bad qilib nomim mani..." (7 bayt), "Bir sitamgar ishqidin xotiri parishonman yana..." (7 bayt), "Aylay mojar ila tokim o'zimni muftalo ko'rdim..." (7 bayt), "Borib, ey tong quyoshi dildor jonimg'a salomim ayt..." (9 bayt), "Tarahhum birla, ey xo'b zamona..." (7 bayt), "Ey siymtan g'uncha, deymen javr-jafoni oz qil..." (7 bayt), "Ko'rub bedodlar tun-kun o'shal shamshod qomatidin..." (7 bayt), "Yorg'a dardu dilim sharxini qilg'il, ey sabo..." (7 bayt), "Parivash nozanim qilma bedod..." (7 bayt), "Tarahhum fosh etib, ey mohtobon..." (7 bayt), "Tota behusn avjida mah yanglig' maqom..." (7 bayt), "Faryodkim ul sanga dilvasl ichra bir yod aylamas..." (7 bayt), "Ey yuzlari gul, lablari g'uncha, qadi shamshod..." (6 bayt), "Har sehri ohim o'tig'a hiyla etsa o'rtanur..." (7 bayt), "To bo'lg'och ul xurshidivash, sho'xi suxandin yiroq..." (7 bayt), "Tarki zulm et, ey sitamgar emdi bu ozor bas..." (7 bayt), "Kel, ey dil emdikim barcha dard..." (6 bayt), "Mehru muhabbat fosh etib, bir kecha, ey samin badan..." (7 bayt), "Furqat aro tashlab mani subhu maso edi barpo..." (7 bayt), "Ey ko'zu qoshingga sadqa bu dil jon o'lsun..." (7 bayt), "Ey ko'ngul topardur imkon yig'lag'il yor allaydo..." (7 bayt).

Matla': Parishon etib xotirimni bu dam,
Qilursan ko'zim ashkini naylayim.

Maqta': Hazinzorda bu onini qo'ymag'il,
Parishon etib xotirimni bu dam.

G'azal aruzning hazaji musaddasi mahzuf bahrida yozilgan. Komil Devoniyning **6951 raqamli bayozdagi** 21 ta g'azali 2024 raqamli bayozdan o'rin olgan 23 ta g'azal bilan qiyoslaganimizda g'azallarning takrorlanmaganini guvohi bo'ldik.

2. Komil Devoniy **o'z qo'li bilan ko'chirgan devon qo'lyozmalarini** ham ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

- a) o'zining devoni;
- b) boshqa shoirning devoni.

a) 1142-inventar raqamli "Devoni **Devoniy**" – O'zR FASHI asosiy fondida saqlanayotgan ushbu qo'lyozmada **Komil Devoniy** she'rlari jamlangan. Qo'lyozma uch qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida Xodim, ikkinchi qismida Devoniy, uchinchi qismida Habib she'rlari ko'chirilgan.

Devonda shoirning 558 ta g'azali, 23 ta muxammas, 5 ta musaddas, 2 ta ruboiy, 2 ta qasida, 1 ta munojot, 1 ta mustazodi ko'chirilgan. Jami: 592 ta she'r kiritilgan.

Demak bu she'rlarning barchasi Komil Devoniyning o'z qo'li bilan ko'chirilgan adabiy merosidir. Matnshunoslik ilmidagi bu "**Dastxat nusxa**" deb ataladi.

b) Komil Devoniy o'zi yashagan davrda ijod etgan G'ulomiyning devonini ko'chirgan. Bu qo'lyozma ham O'zR FASHI asosiy fondida 6701-inventar raqami ostida saqlanadi.

Devondan G'ulomiyning 741 ta g'azal, 10 ta muxammas, 6 ta musaddas, 4 ta murabba', 18 ta ruboiy, 1 ta mustazodi o'rin olgan. Jami: 780 ta she'r ko'chirilgan.

XULOSA

1. Komil Devoniy Feruz davrining yetuk vakillaridan biri bo‘lib, uning adabiy merosi, xattotlik san’ati va ma’rifatparvarlik qarashlari o‘zbek mumtoz adabiyotining boy hazinasini tashkil etadi. Shoir nafaqat ijodiy salohiyati, balki qo‘lyozma madaniyatiga bo‘lgan yuksak hurmati, ilm-fanga sadoqat bilan xizmat qilganligi bilan ham e’tiborga loyiqdir.

2. Shoirning devoni va bir nechta bayozlarda saqlanib qolgan she’riy merosi uning ijodiy faoliyatini har tomonlama o‘rganish imkonini beradi. Ayniqsa, u tomonidan o‘z qo‘li bilan ko‘chirilgan qo‘lyozmalar matnshunoslik nuqtayi nazaridan nihoyatda qimmatlidir. Bu asarlarni ilmiy asosda tahlil qilish, nashrga tayyorlash va keng jamoatchilikka taqdim etish — bugungi adabiyotshunoslik oldidagi muhim vazifalardan biridir.

3. Komil Devoniyning hayoti va ijodi haqida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uning ijodi faqat tarixiy emas, balki zamonaviy badiiy-estetik mezonlarga ham javob beradi. Shoirning badiiy qarashlari, ijtimoiy fikrlari, ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi g‘azallari bugungi kun o‘quvchisini ham o‘ziga jalb etadi. Shu bois Komil Devoniy ijodining keyingi bosqichda yanada chuqur va tizimli o‘rganilishi dolzarb ilmiy masala bo‘lib qolmoqda.

4. Devoniy ijodi bo‘yicha tadqiqotlar mustaqillikdan oldin va undan keyin ham oz bo‘lsa-da amalga oshirilgan. Ammo hali Komil Devoniy ijodi matnshunoslik va manbashunoslik aspektida to‘liq o‘rganilmagan va devonlaridagi, bayozlardagi g‘azallari to‘liq nashr etilmagan. Bu esa shoir ijodi o‘rganilishi bo‘yicha hali ko‘p ishlar amalga oshirilishi, shoirning devonlarini nashrga tayyorlab, uni keng jamoatchilikka tatbiq qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR

1. Азизов Бобожон Тарроҳ – Ходим. (1994) Хоразм навозандалари (Нашрга тайёрловчи: Давлатёр Раҳим). –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат.
2. Бобожон Тарроҳ-Ходим. (2011) Хоразм шоир ва навозандалари (Нашрга тайёрловчилар: Анбара Отамуродова ва Олланазар Абдурахимов). – Тошкент: Tafakkur qanoti.
3. Валихўжаев Б. (1993) Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон.
4. Комил Девоний. (2006) (Нашрга тайёрловчи: Комил Аваз). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти.
5. Комил Девоний. Танланган асарлар. (2022) (Нашрга тайёрловчи: Анвар Матниязов). – Тошкент.
6. Комил Девоний. Шеърлар. (1971) (Нашрга тайёрловчи: Юсуф Рўзиматов). – Тошкент.
7. Сирожидинов Ш., Умарова С. (2015) Ўзбек матншунослиги қирралари. – Тошкент: Akademnashr.
8. Раҳмонов В. (1987. 10 декабр) Матн ва матншунослик. // Ўзбек адабиёти санъати.
9. Содиқов Қ. (2017) Матншунослик ва манбашунослик асослари. –Тошкент.
10. Ўзбек адабиёти. Хрестоматия. V том, III китоб (1968) Тошкент: Фафур Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти.
11. O‘zR FA ShIning asosiy fondida saqlanayotgan qo‘lyozmalar: №901, №906, №1142, №1152, №6701, №6951, №2024.
12. Gayipov, D. (2020). Images of lover, sweetheart and opponent in Agahi's poetry. *Journal of Critical Reviews*, 7(4), 404-407.
13. G‘ayipov, D. Q. (2023). NAVOIY G‘AZALLARIGA XORAZMLIK SHOIRLARNING MUXAMMASLARI XUSUSIDA BA‘ZI MULOHAZALAR. *Academic research in educational sciences*, 4(Conference Proceedings 1), 122-128.
14. Мадиримова, С. (2023). О ‘zbek adabiyoti tarixini o‘qitishning manbaviy asoslari (mutrib ijodi). *Каталог учебников*, 1(1), 3-136.
15. Madirimova, S. (2021). “Majmuayi muxammasoti ash-shuaroyi Feruzshohiy” to‘plamida Mutrib she‘rlari. *Oltin bitiglar–Golden Scripts*, 1(1).
16. Мадиримова, С. (2020). Gazelles of Mutlib Khonakharob copied into Bayaz manuscript. in *Library*, 20(2), 1-4.

17. Makhmudovna, M. S., & Eisar, J. (2024). OBSERVATIONS ON THE LIFE AND CREATIVITY OF MURODIY. *American Journal of Philological Sciences*, 4(04), 122-128.
18. Мадиримова, С. (2020). Газели Мутриба Ханахараба. in *Library*, 20(1), 175-189.
19. Мадиримова, С. (2019). About mutrib Khonakharobiy's new Mukhammasi. in *Library*, 19(4), 72-75.
20. Ҳабибуллаев А. (2009) Нашрларда матн танқидини ўрганишга доир. // Шарқшунослик.
21. Umarova, S. Z. (2024). Textual Study Of Diwans Of Khorezm Prince Poets Of The 19th-20th Centuries. *SPAST Reports*, 1(1).
22. Умарова, С. (2022). Хоразм adabiy muhitida devonchilik an'anasi. *Ўзбекистан: язык и культура*, 1(2), 14-25.
23. UMAROVA, S. (2025). HIROT ADABIY MUHITIGA MONAND.... *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 237-240.